Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
“YASHIL” IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIVAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIVAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI.....	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МИСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I - MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
ANOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўгли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўгли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кошанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: HORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudaybergenova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ.....	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUHLANGANLIK-DEFORMATSİYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSİYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSİYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
<i>Садыков Жахонгир Насырджанович</i>	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
<i>Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li</i>	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
<i>Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich</i>	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
<i>Qodirov Farrux Ergash o'g'li</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
<i>To'rayev Shavkat Shuxratovich</i>	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
<i>Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
<i>Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li</i>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
<i>Achilov Ilmurad Nematovich</i>	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
<i>Nazarova Gulrux Umarjonovna</i>	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
<i>Otabek Azamatov Quyosh o'g'li</i>	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
<i>Раджабова Гавхархон Умаровна</i>	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
<i>Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich</i>	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
<i>Sh. J. Mamadjanov</i>	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
<i>Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov</i>	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
<i>Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
<i>Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor</i>	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
<i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna</i>	
OLIV TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
<i>Djabbarova Zilola Saburovna</i>	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
<i>Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich</i>	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шуҳрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI.....	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	



O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI

Pulatova Moxigul

Oriental universiteti o'qituvchisi

E-mail: pulatovamokhigul@gmail.com

ORCID: 0009-0005-9717-4895

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekistonda sifatli iqtisodiy o'sishini o'rganadi, miqdoriy kengayishdan barqaror, innovatsiyaga asoslangan rivojlanishga o'tishga urg'u beradi. Unda sanoat diversifikatsiyasi, mehnat unumdorligi, texnologik taraqqiyot va institutsional islohotlar kabi mavjud tarkibiy qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, u raqamlashtirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya kabi istiqbolli kelajak haqida prognozlar beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sifatli o'sishni ta'minlash uchun muvofiqlashtirilgan siyosat choralari, maqsadli innovatsion strategiyalar va takomillashtirilgan boshqaruv mexanizmlari talab etiladi, bu esa birgalikda O'zbekistonda uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni va turmush darajasini yaxshilashni ta'minlashi mumkin.

Kalit so'zlar: sifatli iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, tarkibiy islohotlar, innovatsiya, mehnat unumdorligi, investitsiyalar, iqtisodiy diversifikatsiya, raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract. This article examines Uzbekistan's qualitative economic growth, emphasizing the transition from quantitative expansion to sustainable, innovation-driven development. It analyzes existing structural challenges such as industrial diversification, labor productivity, technological development, and institutional reforms. At the same time, it provides forecasts for promising future developments such as digitalization, foreign direct investment, public-private partnerships, and regional economic integration. The study's findings show that ensuring qualitative growth requires coordinated policy measures, targeted innovation strategies, and improved governance mechanisms, which together can ensure long-term economic stability and improved living standards in Uzbekistan.

Key words: quality economic growth, sustainable development, structural reforms, innovation, labor productivity, investments, economic diversification, digitization, public-private partnership.

Аннотация. В данной статье рассматривается качественный экономический рост Узбекистана с акцентом на переход от количественного расширения к устойчивому инновационному развитию. Анализируются существующие структурные проблемы, такие как промышленная диверсификация, производительность труда, технологическое развитие и институциональные реформы. В то же время даются прогнозы перспективных направлений развития, таких как цифровизация, прямые иностранные инвестиции, государственно-частное партнерство и региональная экономическая интеграция. Результаты исследования показывают, что для обеспечения качественного роста необходимы скоординированные меры политики, целенаправленные инновационные стратегии и совершенствование механизмов управления, которые в совокупности могут обеспечить долгосрочную экономическую стабильность и повышение уровня жизни в Узбекистане.

Ключевые слова: качественный экономический рост, устойчивое развитие, структурные реформы, инновации, производительность труда, инвестиции, диверсификация экономики, цифровизация, государственно-частное партнерство.

KIRISH

So'nggi o'n yillikda O'zbekiston barqaror va ta'sirchan miqdoriy iqtisodiy o'sishni namoyish etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (2025) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YalM) 2024-yilda taxminan 114,96 milliard AQSh dollariga yetdi va bu 2023-yilga nisbatan 6,5 foizlik real iqtisodiy o'sishni aks ettiradi. Shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YalM (nominal hisobda) 2024-yilda qariyb 3093 AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatda o'rtacha turmush darajasining izchil oshib borayotganidan dalolat beradi.



Bunda umumiy ishlab chiqarish hajmining barqaror kengayishi bilan bir qatorda, siyosatchilar va iqtisodchilar orasida farovonlikning uzoq muddatli mustahkamlanishi faqat miqdoriy o'sish bilangina cheklanib qolmasligi kerakligi tobora keng e'tirof etilmoqda. Ya'ni, "ko'proq ishlab chiqarish va ko'proq ish o'rinlari" modelidan tashqari, iqtisodiy rivojlanishning keyingi bosqichi tarkibiy o'zgarishlar, mehnat unumdorligining oshishi, iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, innovatsiyalarni joriy etish hamda institutsional samaradorlikni kuchaytirish bilan tavsiflanadigan sifatli o'sishga o'tishni taqozo etadi.

Mazkur maqola O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holatini aynan sifatli iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan tahlil qilishga qaratilgan. Unda so'nggi yillardagi makroiqtisodiy yutuqlar qanchalik darajada tarkibiy yaxshilanishlarga aylangani, xususan iqtisodiyotning sektorlar tarkibi, inson kapitali sifati, mehnat unumdorligi va boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar orqali baholanadi. Shu maqsadda YaIMning sektoral tarkibi, sanoat, xizmatlar va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining o'sish sur'atlari, shuningdek rivojlanayotgan yuqori texnologiyali segmentlarning iqtisodiyotdagi roli tahlil qilinadi. Bundan tashqari, mehnat bozori, bandlik dinamikasi, tartibga solish islohotlari hamda ichki va tashqi investitsiyalar oqimiga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu bilan birga, tadqiqotda keyingi 5-10 yil uchun sifatli iqtisodiy o'sishning ehtimoliy trayektoriyalari ham ko'rib chiqiladi. Ushbu prognozlar global tovar bozorlaridagi tendensiyalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish salohiyati, ichki iqtisodiy siyosatdagi islohotlar hamda demografik omillarni hisobga olgan holda shakllantiriladi. Xalqaro valyuta jamg'armasining (XVJ) so'nggi baholariga ko'ra, IMF (2025) prognozlarida O'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy o'sishi 2025-2026-yillarda bazaviy ssenariy asosida yiliga taxminan 6 foiz atrofida barqaror saqlanishi kutilmoqda.

Biroq, iqtisodiy o'sishning "sifatli" bosqichiga to'liq o'tish yuqori mehnat unumdorligi, yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi sanoat va xizmatlar ulushini kengaytirish, daromadlarning adolatli taqsimlanishi, samarali institutlar hamda ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq. Ushbu yo'nalishlar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining keyingi bosqichida muhim ustuvor vazifalar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois, mazkur tadqiqot nafaqat O'zbekiston iqtisodiyotining bugungi holatini empirik jihatdan yoritadi, balki mamlakatning sifat jihatidan yanada kuchli, bardoshli va inklyuziv iqtisodiyotga o'tish istiqbollarini baholashga ham xizmat qiladi. Natijalar iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirish va sifatli o'sishga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda akademik hamda siyosatga yo'naltirilgan tadqiqotlar hajmining ortib borishi e'tiborni iqtisodiy rivojlanishni faqat miqdoriy ishlab chiqarish o'sishi doirasida baholashdan ko'ra, chuqurroq tarkibiy va sifat jihatidan o'zgarishlarni tahlil qilishga yo'naltirmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda sifatli iqtisodiy o'sishning dinamikasi, cheklovlari va istiqbollarini tushunish uchun ilmiy adabiyotlarda shakllangan bir nechta asosiy yo'nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, tarkibiy islohotlar va iqtisodiyot tuzilmasining transformatsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlar muhim o'rin egallaydi. Rakhmonov F. va Ganiev S. (2025) so'nggi o'n yillikda amalga oshirilgan islohotlar qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sohalarida ishlab chiqarish tarkibini sezilarli darajada o'zgartirganini ko'rsatadi. Mualliflar O'zbekiston iqtisodiyotida diversifikatsiya jarayoni, raqamlashtirishning kengayishi hamda xizmatlar sohasi ulushining bosqichma-bosqich ortib borishini "Uzbekistan's economy: modern directions of structural transformations" asarida asoslab beradi. Xuddi shuningdek, Khamrakulova O.D. va Zokirboev A. (2025) iqtisodiy o'sishni ekstensiv (kapital va mehnat resurslariga asoslangan) hamda intensiv (mahsuldorlik va samaradorlikka asoslangan) shakllarga ajratib, so'nggi bozor islohotlari, investitsiyalar va texnologiyalarni joriy etish jarayonlari iqtisodiyotda intensiv o'sish modeliga o'tishni jadallashtirayotganini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston iqtisodiyoti ishlab chiqarish hajmini shunchaki kengaytirish bilan cheklanmay, sifatli o'sish uchun zarur bo'lgan tarkibiy asoslarni shakllantira boshlaganini ko'rsatadi.

Ikkinchi muhim yo'nalish investitsiyalar, xususan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va savdo ochiqligining iqtisodiy o'sishga ta'sirini empirik baholash bilan bog'liq. Nabiyev A. (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda savdo ochiqligi va YaIM o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog'liqlik mavjudligini aniqlaydi. Jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 1 foizga o'sishi YaIMning taxminan 0,624 foizga oshishi bilan, savdo ochiqligining 1 foizga ortishi esa YaIMning qariyb 1,08 foizga o'sishi bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. OECD (2025) tomonidan e'lon qilingan O'zbekistonda barqaror investitsiya siyosatini isloh qilish bo'yicha Yo'l xaritasida esa 2023-yilda yalpi asosiy kapitalni shakllantirish hajmi YaIMning 32,2 foizini tashkil etgani qayd etiladi. Bu holat to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi nisbatan cheklangan bo'lishiga qaramay (taxminan 14,9 milliard AQSh dollari yoki YaIMning 14,6 foizi), xususiylashtirish jarayonlari va biznes muhitining yaxshilanishi hisobiga investitsiya faolligi izchil oshib borayotganini anglatadi.



So'nggi yillarda inson kapitali sifatli iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Xurramov A.F. (2024) tadqiqotlarida ta'lim darajasi, mehnat ko'nikmalari va ishchi kuchi tarkibining takomillashuvi mehnat unumdorligi, innovatsiyalarni joriy etish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi bilan bevosita bog'liqligi asoslab beriladi. Xuddi shuningdek, Iskandarova D.I. (2025) inson kapitali rivoji, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki daromadlar taqsimoti, tengsizlik darajasi va aholi turmush sifatiga ta'sirini "sifatli o'sish" tushunchasining muhim o'lchovlari sifatida tahlil qiladi. Bu esa tarkibiy transformatsiya jarayonida moddiy kapital bilan bir qatorda intellektual va inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasining O'zbekiston bo'yicha 2024-yilgi mamlakat sharhiga ko'ra, 2018-2023-yillarda amalga oshirilgan islohotlar va kapital oqimlari iqtisodiyotda o'rtacha 5,5 foizlik barqaror o'sishni ta'minlagan. Shu bilan birga, umumiy omillar unumdorligining o'sishi o'rtacha darajada saqlanib, yiliga taxminan 1-2 foizni tashkil etgani qayd etiladi. Bu holat samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni keng joriy etish va yuqori qo'shimcha qiymatli tarmoqlarga o'tish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. XVJ hisobotida ayrim islohotlar, jumladan energiya narxlarini liberallashtirish, xususiylashtirish va tartibga solishni soddalashtirish jarayonlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani ham ta'kidlanadi, bu esa uzoq muddatda barqaror va samarali iqtisodiy modelni shakllantirish uchun institutsional poydevor yaratadi.

Ko'rib chiqilgan adabiyotlar va ilgari ilgari surilgan tadqiqot gipotezalariga tayangan holda, mazkur tadqiqot miqdoriy ekonometrik tahlilni sifat jihatidan siyosiy va institutsional baholash bilan uyg'unlashtirgan aralash usulli tadqiqot dizayniga asoslanadi. Tadqiqotda davlat statistika organlari, Markaziy bank va xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, XVJ va boshqalar) ma'lumotlari asosida yillik YaIM, aholi jon boshiga YaIM, YaIMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar), asosiy kapitalni shakllantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi va zaxiralari hamda savdo ochiqligi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Shuningdek, inson kapitali bilan bog'liq ta'lim davomiyligi, o'rta va oliy ta'limga qamrov, kasb-hunar ta'limi ko'rsatkichlari, ishchi kuchi ko'nikmalarining taqsimlanishi, yuqori va past unumdorlik sohalarida bandlik ulushi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy farovonlik indikatorlari, daromadlar tengsizligi (Jini koeffitsiyenti), shuningdek institutsional va tartibga soluvchi omillar – biznes muhiti indekslari, tartibga solish sifati, xususiylashtirish jarayoni va liberalizatsiya darajasi ham tahlilga kiritiladi.

Tadqiqot avvalgi uzoq muddatli izlanishlar bilan uzviylikni ta'minlash maqsadida 2004-yildan boshlab eng so'nggi mavjud yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Ushbu keng vaqt oralig'i O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli tendensiyalari va tarkibiy o'zgarishlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot empirik va institutsional yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali mavjud ilmiy adabiyotlarda kuzatilayotgan muhim bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Avvalgi izlanishlarning aksariyati asosan makroiqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari yoki investitsiya tendensiyalariga e'tibor qaratgan bo'lsa, nisbatan kam tadqiqotlar sifatli iqtisodiy o'sishni – ya'ni tarkibiy transformatsiyalar, inson kapitalining rivojlanishi, mehnat unumdorligining oshishi, ijtimoiy farovonlik hamda institutsional samaradorlikni – yagona va yaxlit tahliliy doirada chuqur o'rganadi.

Taklif etilayotgan metodologiya ilgari shakllantirilgan tadqiqot gipotezalarini qat'iy empirik sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv nafaqat mavjud holatni diagnostik baholashni, balki turli muqobil siyosiy va iqtisodiy ssenariylar asosida sifatli o'sishning istiqbolli yo'nalishlarini prognoz qilishga ham xizmat qiladi. Natijada tadqiqot xulosalari iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda O'zbekiston bo'yicha mavjud bo'lgan eng so'nggi makroiqtisodiy va tarmoqlar kesimidagi ma'lumotlarga tayangan holda tadqiqotning empirik natijalari, shuningdek tarkibiy o'zgarishlar, unumdorlik dinamikasi va sifatli iqtisodiy o'sish bo'yicha dastlabki prognozlar tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (2025) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 2024-yilda kuzatilgan makroiqtisodiy va tarkibiy tendensiyalar quyidagicha tavsiflanadi:

- 2024-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) taxminan 114,96 milliard AQSh dollarini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 6,5 foizlik real iqtisodiy o'sish qayd etildi;
- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM (nominal hisobda) 2024-yilda taxminan 39,13 million so'mga (3092,7 AQSh dollari) yetdi, bu 2020-yilga nisbatan qariyb 19,5 foizlik o'sishni anglatadi;



• YalMning tarmoq tarkibida muhim siljishlar kuzatildi: xizmatlar ulushi 46,2 foizdan 47,4 foizga, sanoat ulushi 25,3 foizdan 26,4 foizga oshdi, qishloq xo'jaligining ulushi esa 21,2 foizdan 19,2 foizga, qurilish esa 7,3 foizdan 7,0 foizga qisqardi.

Mazkur tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyotning an'anaviy qishloq xo'jaligi ustunligidan asta-sekin voz kechib, sanoat va xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan modelga o'tayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon sifatli iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Tarmoqlar kesimida o'sish va unumdorlik dinamikasining tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda sanoatning YalMdagi ulushi 26,4 foizgacha oshdi, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik sektorida yalpi qo'shilgan qiymat 3,1 foizga o'sdi, xizmatlar sektori esa yetakchi rolini saqlab qoldi. Xizmatlar ulushining kengayishi ushbu sektorning iqtisodiyotdagi nisbiy ahamiyati ortib borayotganini va an'anaviy tarmoqlarga nisbatan ustunlik kasb etayotganini aks ettiradi.

Bu tendensiyalar tarkibiy transformatsiya g'oyasiga mos kelib, kapital va mehnat resurslarining asta-sekin yuqori mahsuldorlik va yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan sohalarga qayta taqsimlanayotganini anglatadi.

Tarkibiy diversifikatsiya va unumdorlikning sifatli o'sishga ta'siri quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

• sanoat va xizmatlar ulushining ortib borishi iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiyalashayotganini, qishloq xo'jaligiga bog'liqlikning kamayishini va shu orqali iqtisodiy barqarorlikning kuchayishini bildiradi;

• xizmatlar sektorida, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, transport va moliya kabi bilim va texnologiyaga tayangan kichik tarmoqlarning kengayishi bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonini aks ettiradi;

• aholi jon boshiga YalMning izchil o'sishi tarkibiy o'zgarishlar bilan uyg'un holda o'rtacha turmush darajasining oshib borayotganini ko'rsatadi.

Shu nuqta nazardan, kuzatilayotgan tarkibiy siljishlar, unumdorlikni oshirish salohiyati va iqtisodiy bazaning bosqichma-bosqich modernizatsiyalashuvi sifatli iqtisodiy o'sishning dastlabki, ammo muhim belgilari sifatida baholanishi mumkin.

Ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda, ayrim tarkibiy va unumdorlik bilan bog'liq masalalar ham mavjudligini qayd etish lozim:

• qishloq xo'jaligi YalMga hali ham sezilarli hissa qo'shayotgan bo'lsa-da, uning o'rtacha o'sish sur'ati (2024-yilda 3,1 foiz) va umumiy ulushining kamayishi ushbu sektorda unumdorlik o'sishini jadallashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi;

• tarkibiy o'zgarishlar tezligi o'rtacha bo'lib, qishloq xo'jaligi hali ham YalMning qariyb beshdan bir qismini egallab turibdi;

• sanoat va xizmatlar tarmoqlarida mehnat unumdorligi, texnologiyalarni joriy etish va inson kapitali intensivligi bo'yicha batafsil statistik ma'lumotlarning cheklanganligi sifatli o'sishni chuqur baholash imkoniyatlarini qisqartiradi.

Kuzatilgan tendensiyalar asosida 2025-2030-yillarga mo'ljallangan "islohotlarni kuchaytirish" ssenariysi bo'yicha quyidagi ehtimoliy prognozlar ilgari suriladi:

• agar hozirgi o'sish sur'atlari va tarmoq tarkibidagi siljishlar davom etsa, YalMning yillik o'sishi 2026-2028-yillarda o'rtacha 6,5-7,0 foiz atrofida bo'lishi mumkin;

• xizmatlar ulushi 2028-2030-yillarga kelib 50-52 foizgacha yetishi, sanoat ulushi 26-28 foiz atrofida barqarorlashishi, qishloq xo'jaligi ulushi esa 18 foizdan pastga tushishi kutiladi;

• inson kapitali, AKT infratuzilmasi va institutsional islohotlarga investitsiyalar kuchaytirilsa, bu jarayonlar vaqt o'tishi bilan sezilarli unumdorlik o'sishiga, daromadlar oshishiga va jon boshiga qo'shimcha qiymatning ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Empirik natijalar tadqiqot gipotezalarini asosan qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, sanoat va xizmatlar ulushining oshishi bilan bog'liq strukturaviy diversifikatsiya sifatli o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xizmatlarga, ayniqsa AKT va yuqori qiymatli kichik tarmoqlarga yo'nalish iqtisodiy murakkablik va uzoq muddatli o'sish salohiyatini kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, institutsional islohotlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va unumdorlik bilan bog'liqligini miqdoriy jihatdan baholash uchun yanada boyroq ma'lumotlar bazasiga ehtiyoj mavjud.

Umumanolganda, empiriktopilmalarO'zbekistonda sifatli iqtisodiy o'sishga mos keladigan tarkibiy o'zgarishlar jarayoni boshlanganini ko'rsatadi. YalMda sanoat va xizmatlar ulushining oshishi iqtisodiy resurslarning yuqori qiymatli va potensial jihatdan yuqori mahsuldorlikka ega sohalarga qayta taqsimlanayotganidan dalolat beradi. Xizmatlar sektorining, xususan AKT, savdo, transport va logistika kabi tarmoqlarning kengayishi iqtisodiy murakkablik va barqarorlikni oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Shu bilan birga, tarkibiy transformatsiya hali yakunlanmagan o'tish bosqichida ekanini tan olish zarur. Qishloq xo'jaligi va kichik biznesning katta ulushi, norasmiy iqtisodiyotning sezilarli miqyosi iqtisodiy faollikning kengligini aks ettiradi, biroq unumdorlik, innovatsiya va barqarorlikni oshirish uchun qo'shimcha siyosiy va institutsional choralar talab etiladi.



Tadqiqot natijalari sifatli o'sishni chuqurlashtirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni ko'rsatadi:

- inson kapitaliga investitsiyalarni kuchaytirish, ayniqsa texnologiyaga asoslangan sanoat va xizmatlar uchun;
- iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish va institutlarni mustahkamlash orqali barqaror va samarali o'sish muhitini yaratish;
- texnologiyalarni joriy etish va innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali iqtisodiy murakkablikni oshirish;
- sanoat va xizmatlarda yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga yo'naltirilgan diversifikatsiya strategiyalarini rivojlantirish.

Mazkur cheklovlar va topilmalar kelgusidagi tadqiqotlar uchun muhim yo'nalishlarni belgilaydi. Xususan, mikro darajadagi firma ma'lumotlari, norasmiy iqtisodiyot dinamikasi, taqsimot natijalari va ekologik barqarorlik omillarini chuqur o'rganish sifatli iqtisodiy o'sish tushunchasini yanada to'liq va tizimli yoritishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda sifatli iqtisodiy o'sishning hozirgi holati, asosiy muammolari va istiqbollarini tahlil qilib, shunchaki miqdoriy kengayishga emas, balki barqaror, unumdorlikka asoslangan va innovatsiyaga yo'naltirilgan o'sish modeliga o'tish zarurligini asoslab berdi. 2020-2025-yillarni qamrab olgan empirik tahlil natijalari O'zbekiston iqtisodiyoti bosqichma-bosqich tarkibiy transformatsiyani boshdan kechirayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2024-yilda sanoat va xizmatlar sektorlarining YaIMdagi ulushi mos ravishda taxminan 26,4 foiz va 47,4 foizgacha oshgan bo'lsa, qishloq xo'jaligining nisbiy hissasi 19,2 foizgacha kamaydi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM 2020-2024-yillar oralig'ida qariyb 19,5 foizga oshib, o'rtacha turmush darajasining izchil yaxshilanishini aks ettirdi.

Tadqiqot natijalari sifatli iqtisodiy o'sishning dastlabki, ammo muhim belgilarini aniqladi. Resurslar tobora yuqori qo'shimcha qiymatga ega sohalarga yo'naltirilmoqda, xizmatlar sektori, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, savdo va transport kabi tarmoqlar murakkablashib bormoqda, tarkibiy diversifikatsiya esa iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shmoqda. Ushbu tendensiyalar tarkibiy diversifikatsiya sifatli iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi degan gipotezani empirik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlarni ham aniqladi: mehnat unumdorligi o'sishining nisbatan kamtarona sur'atlari, texnologiyalarni joriy etish va innovatsion faoliyat bo'yicha batafsil ma'lumotlarning cheklanganligi, shuningdek norasmiy iqtisodiyot ulushining yuqoriligi o'sish samaradorligi va barqarorligini cheklab turuvchi omillar sifatida namoyan bo'lmoqda.

Kelajakka yo'naltirilgan prognozlar shuni ko'rsatadiki, agar davom etayotgan islohotlar inson kapitalini rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va institutsional mustahkamlashga qaratilgan maqsadli siyosatlar bilan izchil qo'llab-quvvatlansa, O'zbekiston 2028-2030-yillar davomida yillik 6-7 foiz atrofida YaIM o'sishini saqlab qolishi mumkin. Shu bilan birga, tarkibiy modernizatsiya, yuqori qiymatli sohalarga investitsiyalar va ishchi kuchi malakasini oshirish orqali kuzatilayotgan miqdoriy o'sish unumdorlikning oshishi, daromadlar taqsimotining yaxshilanishi va ijtimoiy farovonlikning real o'sishiga aylanishi mumkin.

Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim bosqichida turibdi. Mamlakat sifat jihatidan o'sish sari sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, ushbu o'tish jarayoni hali to'liq yakunlanmagan. To'liq sifatli, innovatsiyaga asoslangan va inklyuziv iqtisodiyotga erishish uchun tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish, korxonalarni rasmiylashtirish va texnologik modernizatsiyani jadallashtirishga doimiy va izchil e'tibor zarur. Ushbu yo'nalishlar amalga oshirilgan taqdirda, O'zbekiston so'nggi yillarda erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik, yuqori turmush darajasi va barqaror rivojlanishni ta'minlash salohiyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdirashidov A. (2025). Mintaqaviy iste'mol tovarlari bozorlarida raqobat muhitini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2(6), 380-390. <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss6-pp380-390>
2. Astanakulov O.T., Abdurakhmanova G.K., Balbaa M.E. & Goyipnazarov S.B. (2022). Ensuring the smooth operation of physical technology companies in distributed environments. ACM International Conference Proceeding Series, 66-73.
3. Faruq A. (2023). The determinants of foreign direct investment (FDI): A panel data analysis for the emerging Asian economies. <https://arxiv.org/abs/2307.07037>
4. International Monetary Fund. (2025). IMF staff concludes visit to Uzbekistan. IMF. <https://www.imf.org/en/news/articles/2025/11/26/pr-25397-uzbekistan-imf-staff-concludes-visit>
5. Iskandarova, D. I. (2025). Aholi turmush darajasi va farovonligini o'rganishning ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlari. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali (ilmiy elektron jurnal), 2, 92-100.
6. Khamrakulova O.D. & Zokirboev A. (2025). Types of economic growth in Uzbekistan. American Journal of Technology Advancement, 2(4), 54-56. <https://doi.org/10.31149/ajta.v2i4.1534>



7. Lee J., Chernikov D. & Nagy R. (2022). Motivations and locational factors of FDI in CIS countries: Empirical evidence from South Korean FDI in Kazakhstan, Russia, and Uzbekistan. <https://arxiv.org/abs/2212.13841>
8. Lutz R., Spies M., Reusser D.E., Kropp J.P. & Rybski D. (2012). Characterizing the development of sectoral gross domestic product composition. <https://arxiv.org/abs/1210.3543>
9. Nabiyev A. (2025). The impact of foreign direct investment (FDI) on Uzbekistan's economic growth. <https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/98869>
10. Pulatova M. (2025). Sifatli iqtisodiy o'sish mamlakat aholisining turmush darajasi va farovonligini oshirishning asosiy omili sifatida. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2(6), 370-379. <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2025-vol2-iss6-pp370-379>
11. Rakhmonov F. & Ganiev S. (2025). Uzbekistan's economy: Modern directions of structural transformations. International Journal of Political Sciences and Economics, 1(2), 170-176. <https://inlibrary.uz/index.php/ijpse/article/view/114100>
12. Stojkoski V., Utkovski Z. & Kocarev L. (2016). The impact of services on economic complexity: Service sophistication as a route for economic growth. <https://arxiv.org/abs/1604.06284>
13. Statistika agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. https://stat.uz/img/01_-vvp_press-reviz-2024_uzb_p61471.pdf
14. Tashkent Times. (2024). World Bank urges reforms in Uzbekistan's services sector to drive growth, jobs, and global trade integration. <https://tashkenttimes.uz/finances/14438-world-bank-urges-reforms-in-uzbekistan-s-services-sector-to-drive-growth-jobs-and-global-trade-integration>
15. World Bank. (2024). The promise of services-led growth in Uzbekistan. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/promise-of-services-led-growth>
16. World Bank. (2024). Uzbekistan: Country overview. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
